

**SOLFY FOYDA  
SODIQLIK DASTURI  
OMMAVIY OFERTA  
(2024-YIL 19-IYUNDAGI YANGI NASHR)**

**UMUMIY QOIDALAR**

Mazkur oferta shartnomaning barcha muhim shartlarini o'z ichiga oladi va O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining (keyingi o'rnlarda O'zRes FK deb yuritiladi) 367-moddasi va 369-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq ommaviy oferta hisoblanadi.

Oferta Solfy Foyda dasturida ishtirok etish shartlari, ishtirokchilarga qo'yiladigan talablar, keshbekni to'lab berish shartlari, shuningdek, Solfy va NBU banki hamkorligida tashkil etilgan Solfy Foyda dasturining boshqa muhim shartlarini o'z ichiga oladi.

Ushbu dastur NBU banki tomonidan chiqarilgan debet kartalari va "Solfy", "Solfy Foyda" savdo belgilari ostidagi xizmatlardan, Solfy Foyda dasturining hamkor do'konlaridan foydalanishga bo'lgan qiziqishni shakllantirish va qo'llab-quvvatlash maqsadida yaratilgan.

Ushbu dasturda ishtirok etish orqali Ishtirokchilar ushbu oferta shartlarini to'liq qabul qilib, ularga o'z roziliklarini bildiradilar.

**1. IBORALAR VA TASNIFLAR**

1.1. NBU – "O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar bo'yicha milliy banki" aksiyadorlik jamiyati.

1.2. Solfy – «Solfy CA» OOO QK.

1.3. Solfy Foyda - bu NBU banki tomonidan chiqarilgan debet kartalaridan foydalanish yordamida mijozlarning faolligini oshirishga va asosiy shartlari ushbu ommaviy ofertada tavsiflangan hamkor-do'konlarda tovarlar, ishlar va xizmatlar sotib olishga qaratilgan Solfy Foyda dasturi.

1.4. Debet karta – NBU banki tomonidan chiqarilgan Uzcard, Humo, Visa, MasterCard to'lov tizimlarining o'zbek so'midagi debet bank kartasi (kreditsiz).

1.5. Hamkor-do'kon Solfy veb-sayti va ilovasida ko'rsatilgan Solfy Foyda hamkor-do'koni.

1.6. Oferta - bu Solfy Foyda dasturining muhim shartlarini o'z ichiga olgan haqiqiy ommaviy oferta.

1.7. Solfy ilovasi – GooglePlay va AppStore'da joylashtirilgan Android va iOS uchun Solfy mobil ilova.

1.8. Sayt - manzil bo'yicha Internetda joylashgan elektron resurs <https://solfy.com/>.

1.9. Ishtirokchi – Solfy Foyda amalga kirganidan so'ng hamkor-do'kondan xarid amalga oshirgan, NBU bankingning debet kartasi bor bo'lgan mijoz.

1.10. Xarid – Hamkor-do'konda tovarlar, ishlar yoki xizmatlarni sotib olish uchun Ishtirokchining debet kartasi bo'yicha xarajatlar operatsiyasi.

1.11. Qaytarish - O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra Ishtirokchi tomonidan Hamkor-do'konga tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) qaytarish yoki ishlar/xizmatlarni rad etish, Hamkor-do'kondan esa Ishtirokchiga pul mablag'larini qaytarish. Ushbu Ofertaning maqsadlari uchun amalga oshirilgan to'lovnini bekor qilish bo'yicha har qanday operatsiya ham to'lovnini qaytarishga tengdir.

1.12. Keshbek – Hamkorlar-do'konlarda tovarlar, ishlar va/yoki xizmatlarni sotib olish uchun to'langan pulning bir qismini Debet kartasiga to'lab berish (qaytarish).

1.13. Hisobot davri - kalender oyи.

**2. SODIQLIK DASTURINING MUDDATI, O'TKAZILISH JOYI VA AMAL QILISH MUDDATI**

2.1. Solfy Foyda sodiqlik dasturi Solfy tomonidan NBU banki bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasi (keyingi o'rnlarda O'zR deb yuritiladi) hududida 2023-yil 1-avgustdan boshlab amalga oshiriladi. Sodiqlik dasturining amal qilish muddati cheklanmagan.

2.2. Ishtirokchilarga dasturda ishtirok etish tartibi, shartlari va Solfy Foyda haqidagi boshqa ma'lumotlar veb-saytda va Solfy ilovasida taqdim etiladi.

2.3. Ushbu ofertada ko'rsatilgan barcha shartlar O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri vaqtiga bo'yicha hisoblanadi.

### **3. SODIQLIK DASTURI ISHTIROKCHILARI**

3.1. Solfy Foya dasturida debet kartaga ega bo'lgan va bunday karta bilan hamkor do'konlarda xaridlarni amalga oshirgan barcha NBU banki mijozlari ishtirok eta oladi.

3.2. 2023-yil 1-avgustdan boshlab har qanday Hamkor-do'konlarda Debet karta orqali tovarlar, ishlar va/yoki xizmatlar uchun to'lov Ishtirokchi tomonidan ushbu Ommaviy oferta shartlarini to'liq va so'zsiz qabul qilishini anglatadi.

### **4. ISHTIROKCHILAR VA SOLFY'NING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

#### **4.1. Ishtirokchi huquqlari:**

4.1.1. Solfy Foya dasturi shartlari haqida ma'lumot olish;

4.1.2. Solfy Foya dasturi shartlarini bajargani evaziga keshbek olish;

4.1.3. Agar keshbek ushbu Oferta shartlariga muvofiq hisoblanmagan va to'lanmagan bo'lsa, Ishtirokchi to'lovlarining to'g'riligini tekshirish uchun Solfy bilan bog'lanish huquqiga eg;

4.1.4. Ishtirokchi Solfy bilan ma'lumotlar uchun telefon orqali bog'lanib, dasturda ishtirok etishni rad etishga haqli.

#### **4.2. Ishtirokchining majburiyatları:**

4.2.1. Ushbu ofertaning shartlarini bajarish;

4.2.2. Ushbu Ofertaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishini mustaqil ravishda nazorat qilish. Ushbu Ofertaning yangi nashri kuchga kirgandan keyin Ishtirokchi tomonidan xarid qilish harakatlarining amalga oshirilishi Ishtirokchining Ofertaning yangi nashriga roziligidini tasdiqlaydi.

#### **4.3. Solfy huquqlari:**

4.3.1. Istalgan vaqtida ushbu Ofertani izoh huquqisiz, shartlarni aniqlashtirish uchun Ofertaga bir tomonlama o'zgartirishlar kiritish. Ofertaning yangi nashri Saytda joylashtirilishi kerak va yangi nashr e'lon qilingan kundan boshlab Ishtirokchilar uchun amal qiladi. Qarama-qarshiliklar mavjud bo'lgan taqdirda, Saytda joylashtirilgan Oferta matni ustunlik qiladi;

4.3.2. Agar Ishtirokchi ushbu Oferta shartlariga rivoja qilmasa va/yoki firibgarlik harakatlariga yo'il qo'ysa va/yoki Ofertaning har qanday qoidalarini suiste'mol qilsa va/yoki Solfy, Bank va/yoki hamkor do'konlarni chalg'ituvchi ma'lumotlarni taqdim etsa, shuningdek, Ishtirokchi boshqa nojo'ya xatti-harakatlar/loqaydliklarni yo'il qo'ysa, shu jumladan Ishtirokchi tomonidan har qanday ommaviy axborot vositalarida, Interneta, har qanday platformalarda yoki boshqa yo'il bilan, Solfy, Bank, ularning xodimlari, muassisleri, filiallari obro'siga ishbilarmonlik obro'siga putur yetkazadigan yoki zarar yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar tarqatish hollari uchrasa har qanday Ishtirokchini sodiqlik dasturida ishtirok etishdan ogohlantirishsiz chetlashtirishga haqli;

4.3.3. Dasturi to'xtatilishidan 3 (uch) kalendar kun oldin Ishtirokchilarni veb-saytda oldindan xabardor qilgan holda dasturni istalgan muddatga to'xtatib turish. Solfy, Bank va/yoki hamkor do'konlarga, shuningdek Ishtirokchi boshqa nojo'ya xatti-harakatlar/loqaydliklarni yo'il qo'ygan etgan taqdirda Ishtirokchining harakatlarida firibgarlik va/yoki Oferta qoidalarini buzish va/yoki Oferta qoidalarini suiste'mol qilish va/yoki chalg'ituvchi ma'lumotlar taqdim etish harakatlari mavjudligini aniqlash uchun ishtirokchiga keshbek taqdim etish tartibini tekshirish davrida to'xtatib turish;

4.3.4. Dastur yopilishidan 3 (uch) kalendar kun oldin Saytda Ishtirokchilarni oldindan xabardor qilgan holda ushbu Ofertani bajarishni bir tomonlama rad etish (dasturni yopish);

4.3.5. Ishtirokchilarni oldindan ogohlantirmsandan har qanday Hamkor-do'konni dasturda ishtirok etishdan chetlashtirish, shuningdek, yangi Hamkor-do'konlarni qo'shish. Hamkor-do'konlarning joriy ro'yxati saytda va Solfy ilovasida ko'rsatilgan.

4.3.6. Hamkor-do'konda xaridlar uchun keshbekni hisoblash uchun foydalilaniladigan foiz stavkasi Solfy tomonidan bir tomonlama tartibda, Ishtirokchini oldindan ogohlantirmagan holda o'zgartirilishi mumkin. Har bir hamkor-do'kon uchun keshbekni hisoblash uchun foydalilaniladigan foiz stavkasining haqiqiy miqdori Saytda va Solfy ilovasida ko'rsatilgan.

4.3.7. Keshbek noto'g'ri hisoblangan va/yoki to'langan taqdirda, Solfy Ishtirokchini ogohlantirmsandan mustaqil ravishda tuzatish kiritishga haqli.

- 4.4. Solfy'ning majburiyatları:
- 4.4.1. Ushbu Ofertaga rioya qilish;
  - 4.4.2. Ushbu Ofertada ko'rsatilgan muddatlarda Ishtirokchilarga keshbekni hisoblash va to'lash;
  - 4.4.3. Ishtirokchilarning Solfy Foyda dasturi haqida veb-saytda, Solfy ilovasida, shuningdek, Solfy Telegram-botidan foydalanish va boshqa yo'llar bilan xabardor bo'lishini ta'minlash;
  - 4.4.4. Ushbu Ofertaning 4.1.3-bandiga muvofiq Ishtirokchilarning murojaatini 90 kun ichida ko'rib chiqish va murojaat natijalarini istalgan aloqa kanallari yordamida ishtirokchiga e'lon qilish.

## 5. SOLFY FOYDA SODIQLIK DASTURINING SHARTLARI

5.1. Hamkor-do'konlarda amalga oshirilgan xaridlar uchun debet kartasi bilan to'langan har bitta to'lov uchun Ishtirokchiga xariddan ma'lum bir foizda keshbek hisoblanadi. Keshbek minimal yoki maksimal summasi bo'yicha hech qanday cheklolar yo'q.

Keshbek miqdori Saytda va Solfy ilovasida ko'rsatilgan.

5.2. Bitta operatsiya bo'yicha hisoblangan keshbekning maksimal miqdori 500 000 (besh yuz ming) o'zbek so'midan oshmaydi, bir oy uchun keshbekning maksimal miqdori 1 500 000 (bir million besh yuz ming) o'zbek so'midan oshmaydi.

5.3. Keshbek Ishtirokchining Solfy ilovasidagi sahifasida mijozning NBU banki hisobvarag'ida aks ettirilgan oydan keyingi oyning 20-30-sanalarida bir oyda bir marta hisoblanadi.

5.4. Hisoblangan keshbek miqdori Xarid/To'lovni qaytarish sanasi bilan belgilanadi.

5.5. Hisobot davri uchun hisoblanishi kerak bo'lgan keshbek miqdori har bir alohida Xarid qilish/To'lovni qaytarish uchun hisoblangan keshbekni yig'ish orqali aniqlanadi. Xaridning ma'lum bir hisobot davriga to'g'ri kelishi operatsiya NBU bankining hisobvarag'ida aks ettirilgan sana bo'yicha belgilanadi.

5.6. Keshbek Debet kartalari bilan to'langan Hamkor-do'konlardagi barcha xaridlar uchun hisoblab chiqiladi . va Ishtirokchining barcha debet kartalari bo'yicha umumiy hisobda Solfy ilovasidagi sahifada aks ettiriladi.

5.7. Boshqa do'konlarda qilingan xaridlar uchun keshbek hisoblanmaydi. Ilovalarda yoki p2p o'tkazmalarida xizmatlar uchun to'lov amalga oshirilganda, keshbek hisoblanmaydi.

5.8. Boshqa banklar tomonidan chiqarilgan kartalar, shuningdek, NBU banki tomonidan chiqarilgan kredit yoki muddatli to'lov kartalari bilan to'langan xaridlar uchun keshbek hisoblanmaydi.

5.9. Xarid qaytarilgan taqdirda, keshbek to'lovga "minus" belgisi bilan qabul qilinadi.

5.10. Keshbek to'lovi Ishtirokchi tomonidan Solfy ilovasida mustaqil ravishda amalga oshiriladi va ishtirokchi tomonidan Solfy ilovasida tanlangan Ishtirokchining debet kartasiga to'lanadi.

Agar Ishtirokchi keshbek hisoblangan kundan boshlab 6 oy mobaynida Debet kartasiga keshbek to'lovini amalga oshirmagan bo'lsa, bunday keshbek muddati tugaydi (bekor qilinadi).

5.11. Solfy ilovasi hisoblangan keshbek miqdorini (Ishtirokchining Debet kartasiga o'tkazish uchun mavjud bo'lgan keshbek miqdori) aks ettiradi, shuningdek, Ishtirokchining Debet kartasiga keshbek to'lovlarini amalga oshirish tarixini saqlaydi.

5.12. Keshbek hisoblangandan so'ng, "To'lash" tugmasi foydalanish uchun faol bo'ladi. Ishtirokchi tomonidan amalga oshirilgan to'lov jarayoni bir necha kun davom etishi mumkin. Agar ro'yxatga olish 2 ish kuni ichida sodir bo'lmasa, 78 777 7272 raqamiga qo'ng'iroq qilib, qo'llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qilish tavsiya etiladi.

## 6. ISHTIROKCHILAR DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISH

6.1. Ishtirokchilarning Solfy Foyda dasturida ishtirok etishdan olgan daromadlariga O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 369-moddasiga muvofiq soliq solinmaydi.

## 7. SHAXSIY MA'LUMOTLAR

7.1. Ishtirokchilarning shaxsiy ma'lumotlari "Solfy" va NBU banki tomonidan O'zbekiston Respublikasi "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuning 31-moddasiga muvofiq, "Shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligini himoya qilish to'g'risida"gi qonunning barcha talablari asosida qayta ishlanadi.

7.2. Ishtirokchi Solfy'ga o'z manziliga (shu jumladan elektron pochta) SMS xabarlar ko'rinishida ishtirokchining mobil telefon raqamlariga axborot va reklama xabarlarini yuborish, shuningdek ma'lumot uzatish uchun boshqa vositalar va kanallardan foydalanish huquqini beradi;

7.3. Ishtirokchi Solfy Foyda sodiqlik dasturida ishtirok etishni rad etib, ma'lumot uchun telefon orqali Solfy bilan bog'lanib, shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga roziligini qaytarib olish huquqiga ega.

## **8. SOLFY VA NBU QUYIDAGILAR UCHUN JAVOBGAR EMAS:**

8.1. Ishtirokchilar tomonidan ushbu Oferta shartlarini bajarmaslik;

8.2. Solfy va NBU banki Ishtirokchi tomonidan Hamkor-do'konda sotib olingan tovarlar, ishlar va/yoki xizmatlar bo'yicha hech qanday majburiyatlarni o'z zimmalariga olmaydi. Ishtirokchi va Hamkor-do'kon o'rtasida yuzaga kelgan har qanday kelishmovchiliklar ular tomonidan mustaqil ravishda hal qilinadi.

8.3. Ishtirokchilarning dasturda ishtirok etishi munosabati bilan hayoti, sog'lig'i, ma'naviy va/yoki ruhiy jarohati;

8.4. Solfy Foyda sodiqlik dasturida ishtirok etish bilan bog'liq har qanday xarajatlar va (yoki) yo'qotishlar;

8.5. Tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar, zilzilalar, yong'in, ish tashlashlar, yoki boshqa ofatlar (tomonlarning hech birining aybisiz vujudga kelgan va o'z majburiyatlarini to'laqonlik bajarishiga ta'sir ko'rsatadigan uskunalarining ishdan chiqishi, dasturiy ta'minot va ma'lumotlarni uzatish tizimlari, elektr quvvat va ma'lumot uzatish tizimlari, ishdan chiqishi kabilari), ommaviy tartibsizliklar, hokimiyat, davit boshqaruvi va nazorati organlarining hijjatlari, COVID-19 yoki boshqa infeksiya bilin bog'liq sanitariya-epidemiologiya chekllovlaritaqiqlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan cheklovchi va taqiqlovchi chora-tadbirlarning qabul qilinishi, taqiqlovchi xususiyatga ega, kommunal avariylar va Tomonlar ta'sir o'tkaza olmaydigan va ularning yuzaga kelishi uchun javobgar bo'limgan boshqa hodisalar, bu Oferta bo'yicha majburiyatlarni bajarishning cheklanishiga yoki imkonsizligiga olib kelgan holatlarda majburiyatlarni o'z zimmasiga olmaydi. Majburiyatlarni bajarish muddati ushbu holatlar tugagunga qadar goldiriladi;

8.6. Solfy va Bankning Ishtirokchi oldidagi ushbu Oferta shartlarini buzganlik uchun javobgarligi keshbekni taqdim etish, ishtirokchiga tegishli keshbek berish bilan bog'liq har qanday da'vo mavjud bo'lgan taqdirda cheklanadi.

## **9. BOSHQA QOIDALAR**

9.1. Ushbu Oferta 2023-yil 8-avgustda kuchga kirgan va Solfy tomonidan bekor qilinmagunga qadar yoki Ishtirokchi Solfy bilan telefon orqali bog'lanib, Solfy Foyda sodiqlik dasturida ishtirok etishdan bosh tortmagunga qadar amal qiladi;

9.2. Ushbu Ommaviy oferta bilan tartibga solinmagan barcha masalalar bo'yicha, shuningdek, nizolarni hal qilishda tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi amal qiladilar. Agar yuzaga kelgan nizoni taraflar tomonidan sudgacha bo'lgan da'vo tartibida hal etishning iloji bo'lmasa, u O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi muvofiq Toshkent shahar sudining tegishli sudida hal qili nisi kerak.

Sayt: <https://www.solfy.com>

Solfy pochta manzili: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Mirzo-Ulug'bek tumani, Sayram MFY, Sayram ko'chasi, 251 uy

E-mail: [info@solfy.com](mailto:info@solfy.com)

Murojaat uchun telefon: 78 777 7272